



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafojev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abdusalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	



MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI

G'aniyev Baydulla Toshmurodovich

Iqtisod fanlar nomzodi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriya”

kafedrası dotsenti

Email: ganievb@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2025-yilning yanvar–iyun oylarida O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi. Unda kichik biznesning YalMdagi ulushi, xizmatlar, savdo, investitsiya va qurilish sohalaridagi rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, mavjud muammolar, ijobiy omillar hamda kelgusidagi rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish, yalpi ichki mahsulot (YalIM), bandlik, raqobatbardoshlik, innovatsiya, xizmatlar sohasi, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, investitsiya muhiti, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy barqarorlik, tadbirkorlik siyosati, statistik tahlil.

Abstract. This article analyzes the role of small businesses and private entrepreneurship in the economy of Uzbekistan during January–June 2025, based on statistical indicators. The study highlights the share of small businesses in GDP and examines development trends in the services, trade, investment, and construction sectors. Additionally, existing challenges, positive factors, and prospects for future development are discussed.

Key words: small business; private entrepreneurship; economic growth; gross domestic product (GDP); employment; competitiveness; innovation; services sector; industry; construction; agriculture; investment environment; market economy; economic stability; entrepreneurship policy; statistical analysis.

Аннотация. В статье анализируется роль малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике Узбекистана за период январь–июнь 2025 года на основе статистических данных. Рассматриваются доля малого бизнеса в ВВП, тенденции развития в сферах услуг, торговли, инвестиций и строительства. Также освещаются существующие проблемы, положительные факторы и перспективы дальнейшего развития.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, экономический рост, валовой внутренний продукт (ВВП), занятость, конкурентоспособность, инновации, сфера услуг, промышленность, строительство, сельское хозяйство, инвестиционная среда, рыночная экономика, экономическая стабильность, предпринимательская политика, статистический анализ.

KIRSH

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ular iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishda alohida rol o'ynaydi. O'zbekiston hukumati tomonidan ushbu sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan izchil islohotlar natijasida tadbirkorlik muhiti bosqichma-bosqich takomillashib, biznes uchun qulay sharoitlar kengayib bormoqda.

Jahon amaliy tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan kamroq kapital talab qilishi, ixcham va moslashuvchan tuzilishga egaligi, bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarga tez javob bera olishi hamda ishlab chiqarish jarayonlarini jadal modernizatsiya qilish imkoniyatiga egaligi bilan ustunlikka ega.



Bu xususiyatlar kichik tadbirkorlikning bozor konyunkturasidagi o'zgarishlarga tez moslashishini ta'minlaydi va iqtisodiy jarayonlarda barqarorlik yaratadi.

Yurtimizda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun mavjud tartib-taomillarni soddalashtirish, ruxsat berish jarayonlarini raqamlashtirish va biznes yuritish bo'yicha xizmatlarni yanada optimallashtirish istiqbolli yo'nalishlar sifatida ko'rilmoqda. Mazkur jarayonlarning takomillashuvi tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularga ma'muriy yukni kamaytirish va sohada samarali boshqaruv amaliyotlarini kengroq joriy etish imkonini beradi. Ayrim hududlarda idoralar faoliyatining standartlashtirilishi, hamkorlik mexanizmlarining kuchaytirilishi va manfaatdor tomonlar o'rtasida ochiq muloqotning yo'lga qo'yilishi ushbu yo'nalish bo'yicha ijobiy natijalar keltirib chiqarmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda uning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Sohaning harakatchanligi, kam kapital evaziga ishlab chiqarishni tez yangilash imkoniyati va qisqa muddatlarda raqobatbardosh mahsulotlarni iste'molchilarga taqdim etish qobiliyati uni iqtisodiyotning eng istiqbolli segmentlaridan biriga aylantiradi. Shu bois, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish va kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning joriy etilishi kichik biznesning barqaror o'sishiga zamin yaratadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tobora rivojlanib borishi ularning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bilan bevosita bog'liq. Mamlakatimizda ushbu yo'nalishda zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va mahalliy sharoitga moslab amaliyotga tatbiq etish jarayonlari bosqichma-bosqich kuchayib bormoqda. Bu esa kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotda ularning ulushini kengaytirish va kelajakda yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni bo'yicha ilmiy tadqiqotlar global miqyosda chuqur o'rganilgan bo'lib, ularning aksariyati ushbu sektorni iqtisodiy o'sish, bandlik, innovatsiyalar va hududiy rivojlanishning muhim drayveri sifatida ta'riflaydi. Joseph Schumpeter o'zining tadbirkorlik nazariyasida kichik biznesni iqtisodiy tizimdagi "yaratuvchan buzilish" mexanizmining asosiy manbasi sifatida ko'rsatib, aynan kichik tadbirkorlar innovatsiyalarni tez joriy etishga qodirligini ta'kidlagan. U o'z ishlanmalarida iqtisodiy o'sishning uzluksizligini aynan kichik subyektlarning moslashuvchanligi bilan bog'lagan.

David Birch o'zining mashhur izlanishlarida kichik korxonalarning yangi ish o'rinlari yaratishdagi rolini empirik ma'lumotlar asosida isbotlab bergan. U Amerika iqtisodiyotidagi "Gazelle" deb nomlangan yuqori o'sish sur'atiga ega kichik firmalar mamlakat bo'yicha yaratilgan yangi ish o'rinlarining katta qismini shakllantirishini aniqlagan. Bu natija kichik biznesning bandlikni oshirishdagi ahamiyatini ilmiy nuqtayi nazardan mustahkamlaydi.

Michael Porter raqobatdosh ustunlik nazariyasida kichik biznesning lokal klasterlar tarkibida iqtisodiy faoliyatni jonlantirish, mahalliy bozorlarning moslashuvchanligini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirishdagi ahamiyatini asoslab bergan. Uning fikricha, kichik biznes klasterlar ichida innovatsion oqimning tez tarqalishi va korxonalararo hamkorlikning kuchayishi orqali iqtisodiyotning barqaror strukturasi shakllantiradi.

ILO (Xalqaro Mehnat Tashkiloti)ning keng qamrovli izlanishlari kichik biznesni barqaror bandlik yaratishning eng muhim manbalaridan biri sifatida e'tirof etadi. Ularning tahlillarida qayd etilishicha, rivojlanayotgan davlatlarda kichik tadbirkorlik mehnat bozorining 60–70 foizini tashkil etadi va iqtisodiy shoklarga nisbatan nisbatan chidamliroq bo'ladi.

OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kichik biznesning YAIM tarkibidagi ulushi, eksport operatsiyalaridagi faolligi va innovatsion faoliyatdagi roli bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni taqdim etadi. OECD ekspertlari kichik korxonalar ko'lami kichik bo'lgani uchun bozor o'zgarishlariga tez javob berishi, xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati yuqori bo'lishi va raqobatni jonlantirishi kabi omillarni alohida ta'kidlashadi.

Mark Casson tadqiqotlarida tadbirkorlikning institutsional jihatlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, iqtisodiy muhit, mulkchilik huquqlari, tartibga solish tizimi va bozor moslashuvchanligi kichik biznes rivojlanishining asosiy omillari sifatida ko'rsatilgan. Unga ko'ra, davlat tomonidan yaratilgan qulay institutsional sharoit iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Rivojlanayotgan davlatlar, jumladan Osiyo mamlakatlari bo'yicha World Bank izlanishlari kichik biznesning hududiy rivojlanish, kambag'allikni qisqartirish va yangi innovatsiyalarni tijoratlashtirish jarayonidagi rolini tasdiqlagan. Hisobotlarda kichik tadbirkorlikning mahalliy iqtisodiyotlarga ko'rsatgan multiplikativ ta'siri alohida ajratilgan.

Ushbu ilmiy manbalar umumiy ma'noda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rnini ko'rsatib, ushbu sektorni rivojlantirish mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi, bandlik, innovatsiyalar va eksport salohiyatini oshirish uchun zarur ekanini ta'kidlaydi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, taqqoslama, statistik va induktiv metodlardan foydalanilgan. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Prezident matbuot xizmati va ochiq manbalardan olingan. Tahlil 2025-yilning yanvar–iyun davriga tegishli bo'lib, YalM tarkibidagi kichik biznes ulushi, xizmatlar, savdo va investitsiya ko'rsatkichlari o'rganildi.

TAHLIL BA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan rasmiy ma'lumotlar mamlakat iqtisodiy hayotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni yildan yilga ortib borayotganini yaqqol ko'rsatadi. 2025-yilning yanvar–iyun oylarida ushbu sektorning YalMdagi ulushi 54,5 foiz darajasiga yetgani iqtisodiyotning strukturaviy tarkibida kichik biznesning ustuvor ahamiyat kasb etayotganidan dalolat beradi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish tendensiyasining kuzatilgani ham mamlakatda yaratilayotgan qulay biznes muhiti, tadbirkorlik faoliyatiga oid imtiyozlar va institutsional qo'llab-quvvatlash choralarining real natija berayotganini ko'rsatadi.

Sohalar kesimida kichik biznesning iqtisodiyotga qo'shayotgan hisssasi turlicha bo'lib, bu iqtisodiy tarmoqlarning ichki murakkabligi, kapital talabining turlicha darajasi va bozor sharoitlariga bog'liq holda shakllanadi. Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik sohasida kichik biznesning 97 foizlik ulushi ushbu tarmoqning an'anaviy ravishda xususiy sektor tasarrufida bo'lib kelayotganini, oilaviy dehqon xo'jaliklari, fermerlar va boshqa mayda ishlab chiqaruvchilar yuqori faollikka ega ekanini ko'rsatadi. Qurilish sohasida 79,4 foizlik ulush bu tarmoqda kichik va o'rta korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan qurilish-montaj ishlari, pudrat xizmatlari hamda modernizatsiya loyihalarida kichik biznesning faol ishtirokini ifodalaydi. Xizmatlar sohasida ko'rsatilgan 43,9 foizlik natija xizmat iqtisodiyotining qisqa muddatda o'sishga moyil bo'lgan segmentlarini, xususan savdo, logistika, ta'lim, tibbiyot, turizm, IT-xizmatlari va boshqa yo'nalishlardagi kichik biznesning faolligini aks ettiradi. Sanoat tarmog'ida esa 26,1 foizlik ulush kichik korxonalar tomonidan olib borilayotgan ishlab chiqarish faoliyatining salmoqli bo'lishiga qaramay, sanoatning kapital talabchanligi, yirik texnologik loyihalarning hukmronligi va yuqori xarajatlar fonida kichik biznesning ulushi nisbatan past shakllanishini tushuntiradi. Biroq ushbu ulushning yildan yilga ortib borayotgani sezilarli ijobiy tendensiyaning ko'rsatadi.

Xizmatlar sohasi bo'yicha 2025-yilning birinchi yarmida kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 250 892,6 mlrd so'mga yetgani kichik korxonalarning nafaqat iqtisodiy jarayonlarda, balki aholiga xizmat ko'rsatish bozorida ham asosiy yetakchilardan biriga aylanganini anglatadi. Ushbu hajm umumiy xizmatlar bozorining 54,8 foizini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 11,8 foiz o'sish qayd etilganini ko'rsatadi. Bu esa xizmatlar sektorida ichki talabning kengaygani, raqamli xizmatlar ulushining ortgani, turizm va logistika bozorida jonlanish kuzatilayotgani hamda kichik biznesning bozor bilan tez moslasha olish qobiliyatini aks ettiradi.

Savdo sohasi ko'rsatkichlari ham kichik biznesning iqtisodiy jarayondagi real o'rnini tasdiqlaydi. 2025-yilning yanvar–iyun oylarida chakana savdo aylanmasi 198 703,1 mlrd so'mni tashkil etgani, shundan 162 483,1 mlrd so'm yoki 81,8 foizi kichik biznes hissasiga to'g'ri kelgani ushbu sohada tadbirkorlarning ustun mavqega ega ekanini ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyotida savdo sohasining jonlanishi makroiqtisodiy barqarorlik darajasini oshiradi, aholining turmush sharoitiga bevosita ta'sir qiladi va har bir hududda iqtisodiy faollikni kuchaytiradi.

Hududlar kesimidagi tahlillar kichik biznesning barqaror o'sib borayotganini yanada yaqqol ko'rsatadi. Eng yuqori o'sish sur'atlari Samarqand viloyatida 110,1 foiz, Navoiy viloyatida 109,5 foiz va Qashqadaryo viloyatida 108,9 foiz darajasida qayd etilgani mazkur hududlarda iqtisodiy faollikning kuchayganini, infratuzilma takomillashgani, investitsiya oqimi ortgani va tadbirkorlik muhitining muntazam yaxshilanib borayotganini bildiradi. Hududlar bo'yicha o'ziga xos iqtisodiy faolliklar kichik biznesning mahalliy resurslardan foydalanish, ichki bozor imkoniyatlariga moslashish va yangi ish o'rinlari yaratishdagi o'rnini kuchaytirmoqda.

Investitsiya faoliyati tahlili kichik biznesning real sektor rivojiga qo'shgan hissasini yanada aniqroq ko'rsatadi. 2025-yilning dastlabki olti oyida kichik biznes subyektlarining asosiy kapitalga yo'naltirgan investitsiyalari 168 087,6 mlrd so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar tarkibida 61,5 foizlik ulush bilan ajralib turdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 121,2 foiz o'sishni anglatadi va investitsiya faoliyatida kichik biznesning yetakchi o'ringa chiqayotganidan dalolat beradi. Korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, asosiy fondlarni yangilash, texnologiyalarni modernizatsiya qilish va yangi bozor segmentlariga chiqish bo'yicha tashabbuslari investitsiyalarning yuqori sur'atlarda o'sishiga asos bo'lmoqda.

Kichik biznes subyektlari sonining ortib borishi ham mamlakat iqtisodiy faolligini kuchaytirayotgan omillardan biridir. 2025-yilning 1-may holatiga ko'ra, mamlakatda jami 381 890 ta kichik biznes subyekti ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning tarkibiy tuzilmasi iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo'yicha o'ziga xos nisbatlarga ega. Savdo sohasida 145 939 ta korxonaning faoliyat yuritayotgani mazkur segmentning iqtisodiyotdagi eng



ommabop yo'nalishlardan biri ekanini ko'rsatadi. Sanoat sohasidagi 56 440 ta kichik korxona ishlab chiqarish salohiyatining ortib borayotganidan dalolat beradi. Qishloq xo'jaligida 32 242 ta subyektning mavjudligi agrar sektorda kichik biznesning ustun mavqeyini tasdiqlaydi. Xizmatlar sohasidagi 74 mingdan ortiq korxonalar esa xizmatlar bozorining kengayib borayotganini, ichki talab yuqoriligini va aholining turli toifadagi ehtiyojlari qondirilayotganini ifodalaydi.

Kichik biznes rivojlanishida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash choralarining roli alohida ahamiyatga ega. Soliq imtiyozlari, yengillashtirilgan kreditlar, subsidiya va grant dasturlari, biznesni ro'yxatga olish va yuritish jarayonlarini soddalashtirish, "Bir darcha" tamoyili asosida xizmatlarning raqamlashtirilishi, yuqori texnologiyalarga asoslangan platformalarning joriy etilishi tadbirkorlik faoliyatini boshlash va uni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, bandlikni oshirishga qaratilgan davlat dasturlari, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash tashabbuslari kichik biznesni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylantirmoqda.

Iqtisodiy tizimda kichik biznesning o'rni tobora mustahkamlanib borayotgani uning jamiyat hayotidagi ko'p qirrali ahamiyatini yanada yoritadi. Kichik biznes nafaqat iqtisodiy o'sishning barqaror manbai sifatida, balki aholini ish bilan ta'minlashda, yangi kasblar va ko'nikmalarni shakllantirishda, hududiy iqtisodiy farqlarning yumshashida, bozor mexanizmlarining faol ishlashida va raqobat muhitining mustahkamlanishida ham asosiy o'yinchi sifatida maydonga chiqmoqda. Tovar va xizmatlar sifatining oshishi, innovatsion mahsulotlar ulushining ko'payishi, eksport salohiyatining ortishi ham kichik biznesning iqtisodiyotga qo'shayotgan ijobiy hissalaridan biridir.

Umuman olganda, 2025-yilning birinchi yarmida qayd etilgan natijalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorining iqtisodiy hayotdagi ahamiyati tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu davrda sektorga xos o'sish sur'atlari, investitsiya faolligi, hududlar bo'yicha keng qamrovli rivojlanish va xizmatlar bozorida jonlanish kichik biznesning mamlakat iqtisodiy barqarorligi hamda hududiy rivojlanishda muhim strategik kuch ekanini yaqqol namoyon etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. Ular nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki bandlik va eksport salohiyatiga ham hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2025-yilning birinchi yarmida ushbu sektorning o'sish sur'atlari barqaror bo'lgan. Kelgusida quyidagi yo'nalishlarda ishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq:

1. Tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kredit va grant dasturlarini kengaytirish.
2. Hududlarda biznes infratuzilmasini rivojlantirish.
3. Yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish.
4. Eksportga yo'naltirilgan kichik korxonalarga marketing va sertifikatlash yordamlarini kuchaytirish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining tayanch kuchlaridan biri sifatida shakllanmoqda. 2025-yilning yanvar-iyun davri natijalari shuni ko'rsatadiki, bu sektorning YalMdagi ulushi 49,6 foizni tashkil etib, barqaror o'sish sur'atlarini namoyon qilmoqda.

1. Tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli kreditlar va grant dasturlarini kengaytirish.
2. Hududiy tadbirkorlik infratuzilmasini (logistika, energetika, transport) rivojlantirish.
3. Yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish.
4. Eksportga yo'naltirilgan kichik korxonalarga marketing va sertifikatlash bo'yicha yordam ko'rsatish.

Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ham ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J. Schumpeter. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934.
2. D. J. Storey. Understanding the Small Business Sector. – London: Routledge, 1994.
3. M. Porter. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
4. Z. J. Acs, D. B. Audretsch. Innovation and Small Firms. – Cambridge: MIT Press, 1990.
5. OECD. SME and Entrepreneurship Outlook. – Paris: OECD Publishing, 2021.
6. World Bank. World Development Report: Jobs. – Washington, D.C.: World Bank Publications, 2013.
7. T. Beck, A. Demirgüç-Kunt, R. Levine. SMEs, Growth, and Finance. – Washington, D.C.: World Bank Publications, 2005.
8. ILO. Small and Medium-Sized Enterprises and Employment Creation. – Geneva: International Labour Office, 2015.
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi – <https://stat.uz>
10. Prezident matbuot xizmati – <https://president.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>